“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=341

2025-yil
5-son
dekabr
ISSN 3093-8546



Sud muhokamasi oshkoraligining qonunchilikdagi ifodasi va uni amalda qo‘llash masalalari

Murodjon Shermatov,,
O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi
Magistratura fakulteti bosh mutaxassisi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.
e-mail: murodjonshermatov01071992@gmail.com

Аннотация. Ushbu maqolada sud muhokamasi oshkoraligining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari, uning milliy qonunchilikdagi ifodasi va amaliyotdagi tatbiqi har tomonlama tahlil qilingan. Sud faoliyatida ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini ta’minlash, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari ishtirokini yo‘lga qo‘yish mexanizmlari, shuningdek foto,audio- va videoyozuvlardan foydalanishning huquqiy asoslari yoritilgan. Shu bilan birga, milliy qonunchilik va xalqaro standartlar asosida sud muhokamasi oshkoraligi odil sudlovning adolatli va samarali amalga oshirilishi hamda sud organlariga jamoatchilik ishonchini mustahkamlashda muhim o‘rin tutishi ta’kidlangan.

Калит сўзлар. Sud muhokamasi, ochiqlik, oshkoralik, shaffoflik, jamoatchilik ishtiroki, OAV, sud faoliyati, odil sudlov, sud nazorati, huquqiy asoslar.

Аннотация. В статье рассматриваются конституционно-правовые основы гласности судебного разбирательства, её отражение в национальном законодательстве и применение на практике. Раскрываются механизмы обеспечения открытости и прозрачности в работе судов, участие общественности и СМИ, а также правовые аспекты использования фото-, видео- и аудиозаписей. Отмечается, что гласность судебного процесса, основанная на национальных и международных нормах, способствует справедливому правосудию и укрепляет доверие общества к судебной системе.

Ключевые слова. Судебное разбирательство, открытость, гласность, прозрачность, участие общественности, СМИ, суд, правосудие, контроль, правовые основы.

Annotation. The article examines the constitutional and legal basis for the openness of court proceedings, its reflection in national legislation, and its practical application. The mechanisms for ensuring openness and transparency in the work of courts, the participation of the public and the media, and the legal aspects of using photo, video, and audio recordings are

being disclosed. It is noted that the openness of the judicial process, based on national and international norms, contributes to a fair trial and strengthens public confidence in the judicial system.

Keywords. Judicial proceedings, openness, transparency, public participation, media, court, justice, control, legal foundations.

Jamoatchilik e’tiboridan xoli bo‘lgan har qanday davlat hokimiyati faoliyati muqarrar ravishda byurokratiya, hokimiyatni manipulyatsiya qilish, korrupsiyaning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan suiiste’molliklarga yuz tutadi. Sud tizimida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar ham sudlarning ochiq va oshkora faoliyat yuritishi, sud muhokamalarida protsess ishtirokchisi bo‘lmagan shaxslar va OAVning ishtirokini ta’minlash, axborot olish huquqini ta’minlab borishga keng imkoniyat yaratib kelinmoqda.

Konstitutsiyamiz bilan sud hokimiyatining institutsional mustaqilligi, sud hokimiyatining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritishi belgilab o‘tilgan bo‘lsa-da, davlat xalq irodasini ifoda etishi, hokimiyatning xalqqa tegishli ekani, uning irodasi asosida amalga oshirilishi, shaxs va jamiyat manfaatlarining hamma narsadan ustunligi, davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida mas’ul ekanliklari, inson va fuqarolar huquq va erkinliklarining xalqaro huquq andozalariga mos ravishda belgilanishi va kafolatlanishi va boshqa shu kabi qator demokratik prinsiplarni nazarda tutadi [1].

Bu esa, demokratik davlatda siyosiy hokimiyatning jamiyat va uning a’zolari ustidan hukmronligi emas, balki jamiyatning davlatga nisbatan birlamchiligi sharoitida, ya’ni insonning tom ma’nodagi erkinligi ta’minlanishini, erkin va faol fuqarolik jamiyatining shakllanishi bilan bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, ushbu konstitutsiyaviy kafolatlar sudlar va OAV o‘rtasida konstruktiv muloqotni o‘rnatishning asosi sifatida qayd etishimiz mumkin.

Konstitutsiyamizning 137-moddasida hamma sudlar ishlarni ochiq ko‘rishi, sud ishlarini ko‘rishda jamoatchilik, shu jumladan OAV erkin ishtirok eta olishi mumkinligi belgilangan. Shuningdek, “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning 12-moddasida barcha sudlarda ishlar ochiq ko‘rilishi, sud majlisi zalida hozir bo‘lgan shaxslar, OAV vakillari sud majlisi zalida qonunda belgilangan tartibda fotosuratga olishi, video va audio yozuvni amalga oshirishi mumkinligi, shuningdek protsessual qonunchiligimizda sud muhokamasining oshkora o‘tkazilishi o‘z aksini topganini ko‘rish mumkin.

Qonunchiligimizda sudlar faoliyatiga oid “ochiqlik”, “oshkoralik”, “shaffoflik” tushunchalari bayon qilingan. Masalan, moddiy qonunchilik bilan sudlarda ishlarni ko‘rib chiqish ochiqligi (Konstitutsiyamizning 137-moddasi va “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning 12-moddasi[2]) belgilangan bo‘lsa, protsessual

qonunchilikda (JPK 19-moddasi, FPK 12-moddasi, IPK 11-moddasi va MSIYuTK 13-moddasi) asosan jarayon, ya’ni ish muhokamasi jarayoni nazarda tutilgani bois, sud muhokamalarini o‘tkazish oshkora ko‘rilishi deb keltirilgan[3].

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumi qarorida ham ushbu tushunchalar ajratilgan bo‘lib, sud ishini ko‘rish jarayoni – sud muhokamasiga nisbatan “oshkora” jumlasi qo‘llanilgan bo‘lsa, sudlar o‘z faoliyatini amalga oshirish jarayoni, axborotga kirish, sudlar faoliyatiga doir axborotga kirish huquqiga nisbatan “ochiqlik” tushunchasi foydalanilgan. Shu bois moddiy qonunchilik bilan belgilangan “ochiqlik” tushunchasi kengroq ifodalanib, sud muhokamasi oshkoraligini va sudlar faoliyatiga doir axborotga kirish huquqini ham belgilab bergan[4].

Sudlarning jamoatchilik bilan o‘zaro munosabatlari, sud muhokamasi oshkoraligi milliy qonunchilik bilan birga asosiy xalqaro standartlar bilan ham belgilangan. Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasi tomonidan 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi bo‘lib uning 10-moddasi bilan “Har bir inson huquq va burchlarini belgilash va unga qo‘yilgan jinoiy aybning qanchalik darajada asosli ekanligini aniqlash uchun to‘liq tenglik asosida uning ishi oshkora va adolat talablariga rioya qilingan holda mustaqil va xolis sud tomonidan ko‘rib chiqilishi huquqiga ega” ekanligi[5], “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro paktning 14-moddasi 1-bandiga muvofiq, barcha shaxslar sudlar va tribunallar oldida tengdir. Har bir kishi unga qo‘yilayotgan har qanday jinoiy ayblov ko‘rib chiqilayotganda yoki biron-bir fuqarolik jarayonida uning huquq va burchlari aniqlanayotganida qonunga muvofiq tuzilgan nufuzli, mustaqil va xolis sud tomonidan mazkur ish adolatli hamda oshkora ko‘rib chiqilishi huquqiga egaligi belgilangan[6].

Mintaqaviy xalqaro hujjatlarda, shu jumladan Inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha Yevropa konvensiyasining 6-modda 1-bandi bilan, “Har kim o‘zining fuqarolik huquqlari va majburiyatlari haqidagi da’volashuvda yoki o‘ziga nisbatan har qanday jinoiy ayblov bildirilganda, o‘z ishining qonun asosida tuzilgan mustaqil va xolis sud tomonidan oqilona muddatda adolatli va oshkora ko‘rib chiqilishi huquqiga ega” ekanligi belgilangan[7].

Ushbu xalqaro tamoyillar bilan ham ko‘rishimiz mumkinki, barcha sud muhokamalari, jarayonni o‘tkazishda keng jamoatchilik ishtirok etishi, ya’ni biron biro bir shaxsning huquq va burchlarini belgilash yoki unga qo‘yilgan jinoiy aybning qanchalik darajada asosli yoki yo‘qligi to‘liq oshkora va adolat talablariga rioya qilingan holda o‘tkazilishini kuzatib turish, o‘rganib borish bo‘yicha aynan bu tamoyillar belgilangan.

Shu nuqtai nazardan, odil sudlov oshkoraligi nafaqat sud jarayoni ishtirokchilari uchun, balki butun jamiyat uchun ochiq bo‘lishi lozimligini ko‘rsatib beradi. Xususan, sudlovning transparentligi sud majlislarining oshkoraligini ta’minlashi va bu alohida shaxslar va umuman jamiyat manfaatlarining muhim

kafolati sifatida ta’kidlanadi. Bundan tashqari, Yevropa sudining qaroriga ko‘ra sud muhokamasining oshkoraligi (ochiqligi) jamoat nazorati doirasidan tashqarida bo‘lgan maxfiy odil sudlovdan taraflarni himoya qilishga qaratilgan bo‘lib, barcha bo‘g‘indagi sudlarga bo‘lgan ishonchni saqlovchi vositalardan biridir deb qayd etiladi.

Sud muhokamasi oshkoraligi – protsess ishtirokchisi bo‘lmagan barcha shaxslarga, shu jumladan OAV vakillariga sud majlisida qatnashish imkoniyatini berish bilan ta’minlanadi.

Oshkora o‘tkazilayotgan sud muhokamalari sudlarning maxsus ajratilgan xonalarida – sud majlisi zallarida ko‘riladi. Sud majlisi zalida mebellar, jihozlar hamda texnik vositalarning yetarli darajada mavjudligi sudyaning ko‘rilayotgan ish yuzasidan ishtirokchilarini to‘liq jalb qilish hamda sud protsessini to‘g‘ri olib borishiga katta ta’sirini ko‘rsatadi.

Sud majlislarini protsess ishtirokchisi bo‘lmagan shaxslar qatnashishini istisno etadigan binolarda o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmasligi lozim. Protsess ishtirokchisi bo‘lmagan shaxslar, shu jumladan, OAV vakillarining oshkora sud muhokamalarida qatnashishini cheklovchi yoki ularga monelik qiluvchi sharoit yaratilishi man etiladi va bunday holat protsessual qonun buzilishi deb hisoblanadi va qonunda belgilangan javobgarlik kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Hozirgi kunda, sud muhokamasining yanada oshkoraligi va shaffofligini ta’minlash, sud ishlari va hujjatlarining ta’sirchanligini oshirish maqsadida jamoatchilik ishlab kelayotgan korxona, tashkilot binolarida yoki aholi yashash joylaridagi mahalla fuqarolar yig‘inlari, jazoni ijro etish muassasalari, o‘quv muassasalar, hokimiyat binolari, xalq qabulxonalari va boshqa turdagi binolarda sayyor sud majlislari o‘tkazib kelinmoqda.

Ochiq sud majlisida protsess ishtirokchisi bo‘lmagan voyaga yetmaganlar hozir bo‘lishiga faqat tegishli protsessual qonun talabini inobatga olgan holda yo‘l qo‘yiladi. OAV vakillarining ochiq sud majlisida ish bo‘yicha ma’lumotlar olish maqsadida qatnashishi ma’lumot olishning qonuniy yo‘li ekanligini inobatga olib, ularning qonunda nazarda tutilmagan asoslarga ko‘ra, sud majlisi zaliga kirishiga to‘sqinlik qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan ishlarni ko‘rib chiqishda sudlanuvchining va jabrlanuvchining yaqin qarindoshlarini, shuningdek boshqa shaxslarni yopiq majlislarda tekshiriladigan holatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor qilganlik uchun javobgarlik haqida ogohlantirib, ularning bu majlislarda hozir bo‘lishiga ruxsat berishga haqli. Sud majlisi zalida tartibni saqlab turish uchun zarur bo‘lgan hollarda, sud ayrim shaxslarning sudning ochiq majlislarida hozir bo‘lishini taqiqlashga haqli.

Jinoyat sudlarida sudlov faoliyatida oshkoralikni kengaytirish uchun sudlar zarur hollarda OAV xodimlarini, tegishli jamoat birlashmalarini va jamoalarni bo‘lajak protsesslar to‘g‘risida xabardor qilishi mumkin.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Sud majlisini fototasvirga tushirish, videoyozuvni amalga oshirish, shuningdek, OAVda translyatsiya qilish sudlarning ixtisosligiga qarab, turlicha tartibda amalga oshiriladi.

Jumladan, fuqarolik ishini ko‘rish paytida – sud majlisida raislik qiluvchining taraflar roziligi olingandan keyin bergan ruxsati bilan;

jinoyat, ma’muriy, iqtisodiy ishni va ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rish paytida – sud majlisida raislik qiluvchining taraflar fikrini eshitgandan keyin bergan ruxsati bilan;

Shuningdek, ochiq sud majlisida audioyozuvni amalga oshirishga quyidagi tartibda yo‘l qo‘yiladi:

fuqarolik ishini ko‘rish paytida – sud majlisida raislik qiluvchining taraflar roziligi olingandan keyin bergan ruxsati bilan;

jinoyat ishi va ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rish paytida - sud majlisida raislik qiluvchining taraflar fikrini eshitgandan keyin bergan ruxsati bilan[8].

Biroq, sud majlisi zalida hozir bo‘lganlar har qanday ish bo‘yicha erkin tarzda yozma qaydlar qilishlari, stenogramma yuritishlari, iqtisodiy ish yoki ma’muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqqan ish ko‘rilayotganda esa, shuningdek, audioyozuv olib borishlari mumkin.

Sud majlisini yoritib borish, fototasvirga tushirish, videoyozuv va audioyozuvlarni amalga oshirish yuzasidan protsess ishtirokchilari hamda OAV vakillari murojaatlarini qanoatlantirish yoki rad etish haqida sud joyida ajrim chiqaradi va sud majlisi bayonnomasiga kiritadi[9].

Protsessual qonun talablariga muvofiq fuqarolik, jinoyat, iqtisodiy, ma’muriy ishlar va ma’muriy huquqbuzarliklarga oid ishlarni ko‘rish natijasi bo‘yicha qabul qilingan sud hujjatlari, sud muhokamasi ochiq yoki yopiq tarzda o‘tkazilishidan qat’i nazar, oshkora e’lon qilinadi, qonunda to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Jumladan, voyaga yetmagan shaxsning huquqlari va qonuniy manfaatlariga tegishli yopiq sud majlisida ko‘rilgan fuqarolik ishi bo‘yicha sud qarori (masalan, farzandlikka olish haqidagi) oshkora e’lon qilinmaydi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, oshkora sud muhokamasi ochiq eshiklar ortida o‘tkazilib, barcha shaxslarning ishtirok etish huquqini beradi. Ya’ni, muayyan sud ishlarini ko‘rib chiqish jarayonida protsess ishtirokchisi bo‘lmagan shaxslar hamda OAV ishtirokini ta’minlab borish sudlar faoliyatini kuzatish, baholash, sud protsesslari bo‘yicha axborotlarga ega bo‘lish imkoniyatini yaratib beradi. Bu orqali sudlar faoliyatining oshkoraligi va shaffofligi ta’minlanadi. Sudlarga nisbatan keng jamoatchilikning ishonchi ortadi. O‘z o‘rnida sudyalarning o‘z ishiga jiddiy, mas’uliyat bilan yondashishga, boshqa manfaatdor shaxslar tomonidan sudga bosim o‘tkazish yoki korrupsiya ehtimolini kamaytirishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://lex.uz/docs/-6445145

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

2.Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://lex.uz/docs/-6445145, Oʻzbekiston Respublikasining Sudlar toʻgʻrisidagi Qonuni 12-moddasi. https://lex.uz/docs/-5534923

3.Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi, Oʻzbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi, Oʻzbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi, Oʻzbekiston Respublikasining Maʼmuriy sud ishlarini yuritish toʻgʻrisidagi kodeksi

4.Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining Sud muhokamasi oshkoraligini va sudlar faoliyatiga doir axborot olish huquqini ta'minlash toʻgʻrisidagi qarori. https://lex.uz/docs/-4751577

5.Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasi tomonidan 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. https://constitution.uz/oz/pages/humanrights

6.“Fuqarolik va siyosiy huquqlar toʻgʻrisida”gi xalqaro pakt. https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-civil-and-political-rights

7.Inson huquqlarini himoya qilish boʻyicha Yevropa konvensiyasi, https://www.echr.coe.int/documents/d/echr/convention_ENG

8.Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining Sud muhokamasi oshkoraligini va sudlar faoliyatiga doir axborot olish huquqini ta'minlash toʻgʻrisidagi qarori. https://lex.uz/docs/-4751577

9. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining Sud muhokamasi oshkoraligini va sudlar faoliyatiga doir axborot olish huquqini ta'minlash toʻgʻrisidagi qarori. https://lex.uz/docs/-4751577